



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-sentyabr

## RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 4339,3 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 129,7 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1596,1 ming.so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 4339,3 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,1 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (36,7 %) tashkil etadi.

## 2018 yil yanvar- sentyabr oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)



Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.


### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>4339,3</b>	<b>108,1</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	328,4	117,7
Moliyaviy xizmatlar	427,0	129,7
Transport xizmatlari	853,1	101,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	789,9	102,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	81,3	103,1
Savdo xizmatlari	1591,1	104,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	139,2	104,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	174,4	122,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	81,3	110,9
Ijara xizmatlari	93,4	110,9
Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	132,8	103,2

Shaxsiy xizmatlar	291,1	103,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	37,3	119,4
Boshqa xizmatlar	108,7	107,7


O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi 4,3 trln. so'mga, transport xizmatlari (1,6 trln. so'm), moliyaviy xizmatlar (0,4 trln. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (0,3 trln.so'm), ta'lim xizmatlari (0,2 trln.so'm) oshganligi kuzatildi.

### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, %




Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'lmagan holda oshishi sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ularning hajmi 2017 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 11,2 mlrd.so'mga oshdi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (129,7 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (122,5 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (119,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (117,7 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (110,9 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari transport xizmatlar (101,8 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (103,1 %), Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlar (103,2 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 74,5 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 21,0 % ni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 4,5 % ni tashkil qiladi.


**2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	<b>Hajmi, mlrd.so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</b>
<b>Namangan viloyati</b>	<b>4339,3</b>	<b>108,1</b>
<i>shahar:</i>		
Namangan	1938,2	115,5
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	148,0	102,4
Kosonsoy	204,1	102,1
Namangan	207,1	101,7
Norin	154,4	104,1
Pop	233,1	102,2
To'raqo'rg'on	330,6	102,7
Uychi	201,8	101,2
Uchqo'rg'on	182,0	102,0
Chortoq	224,9	101,8
Chust	255,5	105,2
Yangiqo'rg'on	214,6	102,4

Hududlar o'rtasida Namangan shahri (1938,2 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Namangan shahri bo'yicha 115,5 % ni tashkil etdi.

Namangan shahrida yuqori o'sish sur'atining ta'minlanishi birinchi navbatda aholi real daromadlarining oshishi, yakuniy iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi 45,7 % ni tashkil etadi.


### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati va ulushi, %



Yuqori o'sish sur'atlari Namangan shahri (115,5 %) va Chust (105,2 %) tumanlarida kuzatildi. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Uychi (101,2 %), Namangan (101,7 %), Chortoq (101,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng kichik ulush Mingbuloq tumanida (3,4 %) qayd etildi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1596,1 ming.so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 241,1 ming.so'mga oshdi.





Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahrida - 3280,8 ming so'm qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Namangan shahrida - 113,4 % kuzatildi.

**Namangan viloyat statistika  
boshqarmasi Xizmatlar soxasi  
statistikasi bo'limi**

Mas'ul: B.Zununov

(69) 227-85-28